



"TARAQQIYOT STRATEGIYASI"
MARKAZI

Mustaqillikning

35 yilligi



O'ZBEKISTON: 35 YILLIK TARAQQIYOT VA YANGI MARRALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag'ishlangan nutqi asosida tayyorlangan raqamlar, muhim natijalar va kelajak maqsadlari to'plami



TO'PLAMNI YUKLASH



TAQDIMOTNI YUKLASH



Mundarija

03	Mundarija	3	21	Ta'lim: bog'chadan universitetgacha	21
04	Nutqning asosiy mazmuni	4	22	Ilm-fan, AI va Samarqand-2028	22
05	Yangi Toshkent — ilm-fan markazi	5	23	Raqamli infratuzilma va e-hukumat	23
06	Tarixiy ildizlar va milliy o'zlik	6	24	Sog'liqni saqlash natijalari	24
07	Ajdodlar, jadidlar va tarixiy xotira	7	25	Salomatlik infratuzilmasi	25
08	Iqtisodiyot: 1991–2025 dinamikasi	8	26	Yoshlarni qo'llab-quvvatlash	26
09	Tashqi aloqalar va oziq-ovqat	9	27	Kelgusi o'n yillik	27
10	Ijtimoiy rivojlanish dinamikasi	10	28	Bugungi kun — nutq ko'zglasida	28
11	Mustaqillik yillaridagi yangi sohalar	11	29	Yettita milliy dastur — xarita	29
12	Inson qadri va erkin hayot	12	30	1-dastur · Bilim va malaka	30
13	Odil sudlov va insonparvarlik	13	31	2-dastur · Sog'lom va uzoq umr	31
14	Ochiq iqtisodiyot va investitsiyalar	14	32	3-dastur · Yuqori texnologiya	32
15	Makroiqtisodiyot va moliya	15	33	4-dastur · Suv va tabiat	33
16	Sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi	16	34	5-dastur · Sud mustaqilligi	34
17	Tashqi savdo, eksport va transport	17	35	6-dastur · Mahalla	35
18	Kambag'allik, uy-joy, mahalla	18	36	7-dastur · Tinchlik diyori	36
19	Kambag'allik, bandlik, xotin-qizlar	19	37	Tinchlik va tashqi siyosat	37
20	Ta'limdagi o'zgarishlar	20			



Rasmiy manba: **president.uz**
Prezident Shavkat Mirziyoyevning davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 28-avgust 2026, Yangi Toshkent.
To'liq matn (bosing): <https://president.uz/oz/lists/view/9544>

Nutqning asosiy mazmuni

Prezident Shavkat Mirziyoyev mustaqillikning 35 yilligiga bag'ishlangan nutqida yurt taraqqiyotining besh asosiy yo'nalishini belgilab berdi.

Inson qadri — davlat siyosati markazida

Prezident "Inson qadri uchun!" g'oyasini barcha islohotlarning bosh mezoni sifatida qayta ta'kidladi.

Yangi O'zbekiston — taraqqiyot markazi

Yangi Toshkentda ilm-fan, ta'lim va madaniyat maskanlari ishga tushirilib, mamlakat rivojining yangi bosqichi boshlandi.

Islohotlar natijasi — raqamlarda


Iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy sohada erishilgan aniq yutuqlar sarhisob qilindi.

Kelgusi o'n yillik — milliy yuksalish davri

Yangi davr uchun yettita milliy dastur aniq maqsad va muddatlar bilan e'lon qilindi.

Tinchlik va hamkorlik yo'li

O'zbekistonning mintaqada va dunyoda tinchlik, ishonch va do'stlik diyori sifatidagi mavqei mustahkamlanmoqda.



Yangi Toshkent — ilm-fan, ta'lim va madaniyat markazi

video



Yangi O'zbekiston universiteti

Zamonaviy ta'lim standartlari asosida ishlaydigan yangi universitet majmuasi foydalanishga topshirildi.



Nizomiy Ganjaviy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Pedagog kadrlar tayyorlash uchun yangi zamonaviy o'quv-ilmiy majmua barpo etildi.



O'zbekiston Milliy kutubxonasi

Yurtning ilmiy-ma'rifiy xazinasini sifatida yangi bino va zamonaviy infratuzilma bilan ishga tushirildi.



"Ginnes" rekordlar kitobiga kiritilgan musiqali favvora

Yangi Toshkentdagi favvora dunyodagi eng baland musiqali favvora sifatida "Ginnes" rekordlar kitobidan joy oldi.



Yangi Toshkent — Yangi O'zbekistonning ilm va ma'rifat markaziga aylanmoqda.



Mustaqillikning tarixiy ildizlari va milliy o'zlik

Prezident nutqida bugungi yutuqlarni ajdodlarimiz qoldirgan buyuk ilmiy va davlatchilik merosi bilan bog'lab, milliy o'zlikning tarixiy asoslarini ta'kidladi.

Muhammad al-Xorazmiy

Algebra fanining asoschisi, jahon ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma.

Ahmad al-Farg'oni

Buyuk astronom va matematik olim, jahon ilm-fani rivojiga munosib hissa qo'shgan alloma.

Abu Rayhon Beruniy

Qomusiy olim, astronomiya, geodeziya va boshqa fanlar rivojiga asos solgan mutafakkir.

Abu Ali ibn Sino

Tabobat ilmining buyuk namoyandasi, "Tib qonunlari" asari asrlar osha ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Mirzo Ulug'bek

Buyuk astronom-hukmdor, Samarqand rasadxonasi bilan jahon astronomiyasiga asos solgan.

Mir Alisher Navoiy

O'zbek adabiy tilining asoschisi, milliy ma'naviyatimizning buyuk namoyandasi.

Sohibqiron Amir Temur

Prezident uning davlatini adolat va bunyodkorlik timsoli sifatida alohida ta'kidladi.

video



Birinchi va Ikkinchi Renessans davrida buyuk allomalarimiz bashariyat tafakkuri xazinasini boyitgan.



Ajdodlar, jadidlar va tarixiy xotiraga ehtirom

Nutqda XX asr boshidagi jadid bobolarimizning erk va ma'rifat yo'lidagi kurashi alohida ehtirom bilan tilga olindi — ularning orzulari bugun ro'yobga chiqmoqda.



Mahmudxo'ja Behbudiy



Munavvarqori Abdurashidxonov



Abdurauf Fitrat



Abdulla Qodiriy



Abdulhamid Cho'lpon



Erk va ma'rifat orzusi

Jadid bobolarimiz millatni ilm-ma'rifat orqali uyg'otish va ozod, mustaqil hayot qurish orzusi bilan yashadilar.



Orzular ro'yobga chiqmoqda

Jadidlar orzu qilgan ozod va farovon jamiyat — bugungi Yangi O'zbekiston siyosatida davom etmoqda.




Iqtisodiyot: 1991–2025 yillardagi o'sish dinamikasi

Xalqaro qiyosiy qatorlar bo'yicha 1991-yildan bugungi kungacha bo'lgan o'sish.


YalIM hajmi

mlrd AQSH dollari (joriy narxlar)




Aholi jon boshiga YalIM

AQSH dollari



Sanoat va qurilishda qo'shilgan qiymat


mlrd AQSH dollari



Jahon banki ta'rifi — sanoat va qurilish birgalikda; 1990-yillar va 2017-yilgi pasayishlar valyuta kursi omili bilan bog'liq

Qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymat

mlrd AQSH dollari



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

1991–2026: UMUMIY NATIJA

35 yilda iqtisodiyot hajmi **10,7 barobar**, jon boshiga daromad **6 barobar** o'sdi. Uch yil oldin 2030-yil uchun belgilangan 160 mlrd dollarlik marraning **2026-yilning o'zida** ortig'i bilan bajarilishi kutilmoqda.


O'sish koeffitsiyentlari Jahon banki qatorlari asosida; 160 mlrd — nutqda e'lon qilingan reja (kutilma)

Tashqi aloqalar va oziq-ovqat xavfsizligi dinamikasi

Eksport, savdo, turizm va oziq-ovqat xavfsizligidagi 35 yillik o'zgarish.

Tovarlar eksporti


mlrd AQSH dollari



Jahon banki qatori; milliy «jami eksport» (2025: 34,2 mlrd) alohida ta'rif bo'yicha hisoblanadi

Tashqi savdo aylanmasi


mlrd AQSH dollari



Milliy statistika qo'mitasi qatori — 25 barobar o'sish

Turistik maqsadda kelgan chet el fuqarolari


million kishi



1995–2019 — Jahon banki qatori; 2024 — milliy ma'lumot

Bug'doy yetishtirish

million tonna



Oziq-ovqat mustaqilligi: 7 barobar o'sish (FAO, ICARDA)

TARKIBIY O'ZGARISHLAR

Paxta tolasini ichki qayta ishlash 7 foizdan (1991) 100 foizga (2021) yetdi — xomashyo eksportidan tayyor mahsulotga o'tildi.


ITIM va «O'zto'qimachilik sanoat» ma'lumotlari

Ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari dinamikasi

Salomatlik, uy-joy va ayollar ishtirokidagi uzoq muddatli o'zgarishlar.

Go'daklar o'limi


1 000 tirik tug'ilganga



O'lim ko'rsatkichining qisqarish tendensiyasi — 4,7 barobar; nutqdagi «4 barobar kamaydi» ma'lumotiga muvofiq

Ayollar parlament quyi palatasida

foiz



Jahon banki qatori (1997 yildan yuritiladi)

Jon boshiga uy-joy maydoni


kv.m



1991–2010 — UNECE/Goskomstat qatori; 2022 yildan hisob metodikasi aniqlashtirilgan

Uy-joy fondi umumiy maydoni

mln kv.m



2026 — 1 yanvar holatiga, Urbanizatsiya qo'mitasi ma'lumoti

BUGUNGI KUN

Aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **1991 yildagi 66,4 yoshdan 2025 yilda 75,4 yoshga yetdi**.
Kambag'allik darajasi 2017 yildagi 35 foizdan **4 foizga** tushirildi — 10 million inson turmush sifati yaxshilandi.
Umr davomiyligi va kambag'allik — nutqda aynan keltirilgan raqamlar

Manba: Jahon banki WDI (api.worldbank.org) (SP.DYN.IMRT.IN, SG.GEN.PARL.ZS); UNECE brifi (Goskomstat jadvali); gazeta.uz 28.04.2026; Prezident nutqi, 28.08.2026 (president.uz/uz/lists/view/9544).



Mustaqillik yillarida asos solingan sohalar

Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha 1991 yil uchun qiymat keltirilmaydi: tegishli tarmoq va institutlar mustaqillik yillarida tashkil etilgan.

1991 mavjud emas edi

→

450 ming

dona / yil (2025)

Yengil avtomobillar ishlab chiqarish

Birinchi zavod 1996 yilda ishga tushgan

1991 mavjud emas edi

→

3 930

MVt (05.2026)

Quyosh elektr stansiyalari quvvati

Shamol stansiyalari: 1 652 MVt

1991 mavjud emas edi

→

10,5

mlrd kVt-soat (2025)

Quyosh va shamol generatsiyasi

2023: 0,58 → 2024: 4,86 → 2025: 10,5

1991 mavjud emas edi

→

68,2 mln

dona (01.01.2026)

Bank kartalari

Bir kishida bir nechta karta bo'lishi mumkin; bankomat va infokiosklar: 40 090 ta

1991 mavjud emas edi

→

89,5 %

aholiga nisbatan (2024)

Internet foydalanuvchilari

Mobil aloqa: 100 kishiga 110 obuna

1991 mavjud emas edi

→

705 / 1 240

ta (2025)

Xususiy maktablar va bog'chalar

Nodavlat ta'lim instituti mustaqillikdan keyin yaratilgan

1991 ishtirok etmagan

→

49

ta (1996–2024)

Yozgi Olimpiya medallari

18 oltin, 8 kumush, 23 bronza; ilk ishtirok — 1996, Atlanta

1991 mavjud emas edi

→

800

ta (2025)

my.gov.uz elektron xizmatlari

Davlat xizmatlari markazlari: 408 xizmat turi (2024)

Inson qadri va erkin hayot

So'nggi yillardagi islohotlarning bosh maqsadi — har bir fuqaroning qadri, erkinligi va farovonligini ta'minlash bo'ldi.



“Majburiy mehnat” va “paxta qulligi”ga barham berildi

Prezident insonlar qadri kamsituvchi “majburiy mehnat” va “paxta qulligi” amaliyoti butunlay bartaraf etilganini ta'kidladi.



Konvertatsiya erkinligi ta'minlandi

Milliy valyutani erkin ayirboshlash cheklavlari bekor qilinib, fuqarolar va tadbirkorlar uchun erkinlik yaratildi.



Kambag'allik keskin qisqardi

Kambag'allik darajasi 2017-yildagi 35 foizdan bugungi kunda 4 foizga tushirildi.



650 mingdan ziyod oila — yangi uyda

650 mingdan ortiq oila zamonaviy, qulay uy-joyga ega bo'ldi.

2017 - YIL

35%

aholi kambag'allik chegarasida yashagan

BUGUNGI KUNDA

4%

kambag'allik darajasiga tushirildi

KELAJAK

Farovon hayot

har bir fuqaro uchun insonparvar davlat siyosati davom etadi

INSON QADRI — ISLOHOTLAR MARKAZIDA

BARHAM BERILDI



«Paxta qulligi»

Majburiy va bolalar mehnati

Valyuta konvertatsiyasidagi cheklavlar

«Propiska»

INSON QADRI UCHUN! Davlat siyosatining bosh mezon




ASOSIY MAQSAD
Har bir inson erkin va farovon yashaydigan jamiyat

Odil sudlov va insonparvarlik amaliyoti

Oqlash, yarashuv, jazoni yengillashtirish va huquqiy institutlar dinamikasi.


Oqlangan shaxslar

nafar




«Yarashuv» asosida ozod qilish

ta




Muddatidan ilgari shartli ozod qilish

nafar




Jazoni yengilrog'iga almashtirish

ta




Ishga tiklash bo'yicha talablar

ta



Tadbirkorlar manfaatini himoya qilish

ta



Advokatlar soni

nafar



Ro'yxatdan o'tgan OAVlar soni

ta



Hokimiyat qarorlari haqiqiy emas deb topilgan ishlar

ta



Ko'rilgan ishlar (to'plam qatori): 492 (2017) → 4 623 (2022) → 2 720 (2024)

Ochiq iqtisodiyot, investitsiyalar va natijalar

Mamlakat tashqi dunyoga ochilib, xorijiy investitsiyalar va erkin bozor islohotlari orqali sezilarli iqtisodiy o'sishga erishdi.



40–50 mlrd \$

yillik xorijiy investitsiya
(ilgari 2–3 mlrd \$ edi)



160 mlrd \$

uch yil oldin 2030–yil uchun belgilangan
YalM marrasi 2026–yilning o'zida ortig'i
bilan bajariladi



Daromadi o'rtachadan yuqori davlatlar qatorida

O'zbekiston xalqaro tasnifda daromadi o'rtachadan yuqori davlatlar guruhiga kiritiladi.



Ochiq iqtisodiyot siyosati natija berdi

Investitsiya muhitini yaxshilash va erkin bozor islohotlari xorijiy sarmoyadorlar ishonchini oshirdi.



O'sish sur'ati saqlanmoqda


Erishilgan natijalar 2030–yilgacha belgilangan yangi, yanada yuqori maqsadlar uchun poydevor bo'ldi.



Islahotlar davri: makroiqtisodiyot va moliya


Inflyatsiya darajasi

foiz




Xorijiy investitsiyalar

mlrd AQSH dollari




Oltin-valyuta zaxiralari

mlrd AQSH dollari




Asosiy kapitalga investitsiyalar

trln so'm




Yillik kreditlash hajmi

trln so'm



Banklardagi depozitlar qoldig'i

trln so'm



BUGUNGI KUN

Ilgari yiliga **2–3 mlrd dollar** xorijiy investitsiya kiritilgan bo'lsa, hozirgi paytda **40–50 mlrd dollar** jalb qilinmoqda.

28.08.2026 dagi nutqda qayd etilgan holat

MAQSAD — 3-MILLIY DASTUR


- ✓ Kelgusi o'n yilda **450 mlrd dollar** xorijiy investitsiya; 2030-yilgacha YaIM **300 mlrd dollar**; jon boshiga YaIM **10 ming dollardan** oshadi

Sanoat, energetika va qishloq xo'jaligi

Ishlab chiqarish tarmoqlarining islohotlar davridagi dinamikasi.

Sanoatda qo'shilgan qiymat


mlrd AQSH dollari



Milliy qator (faqat sanoat); Jahon banki qatori (sanoat+qurilish) alohida ta'rif bo'yicha hisoblangan

Yengil avtomobillar ishlab chiqarish

ming dona



Elektr energiyasi ishlab chiqarish


mlrd kVt-soat



1991 — IEA; 2017–2024 — to'plam; 2025 — Energetika vazirligi

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

trln so'm (joriy narxlarda)



Joriy narxlar — o'sishning bir qismi narx omili

MAQSAD — 3 VA 4-MILLIY DASTURLAR


- ✓ Sanoatda **2 million** yuqori daromadli ish o'rni yaratiladi
- ✓ Kelgusi besh yilda suv tejaydigan texnologiyalar qamrovi **100 foizga**, yaqin yillarda shahar va tuman markazlarida yashillik **30 foizga** yetkaziladi

Tashqi savdo, eksport va transport

Savdo aylanmasi, eksport tarkibi va aviatsiya salohiyatining kengayishi.


Tashqi savdo aylanmasi

mlrd AQSH dollari



Eksport (oltinsiz)


mlrd AQSH dollari



Jami eksport (oltin bilan) alohida ta'rif bo'yicha hisoblanadi


Meva-sabzavot eksporti

mln AQSH dollari




Eksportchi korxonalar

ming birlik



Aviaparkdagi havo kemalari

birlik



Havo transportida yo'lovchilar

mln nafar



Kambag'allikni qisqartirish, uy-joy va mahallabay ishlash

Har bir mahalla va oilaning ehtiyojidan kelib chiqadigan "mahallabay" yondashuv ijtimoiy sohada sezilarli natijalar berdi.



35 → 4%

kambag'allik darajasi
2017 yildan bugungi
kunga qadar



650 ming+

oila zamonaviy uy-joyga ega
bo'ldi



10 mln

inson turmush sharoiti
yaxshilandi



Mahallabay ish tizimi

Ehtiyojmand oilalarning daromadi, kasbi, salomatligi, farzandlarining ta'lim olishi va yashash sharoitini yaxshilash bo'yicha "mahallabay" ishlash tizimi yo'lga qo'yildi.



Oilalar farovonligi ustuvor vazifa

Kambag'al oilalarni qo'llab-quvvatlash, ish bilan ta'minlash va uy-joy sharoitini yaxshilash davom etmoqda.



Kambag'allik, bandlik va boshqaruvda xotin-qizlar

Kambag'allikni qisqartirish, mehnat bozori va boshqaruvda xotin-qizlar ishtirokidagi o'zgarishlar.

Kambag'allik darajasi

foiz



Nutqda aynan: 35% dan 4% ga; 10 mln inson

Boshqaruvda xotin-qizlar ulushi

foiz



Ishsizlik darajasi

foiz



2018-yildan XMT metodologiyasi; avvalgi yillar bilan bevosita taqqoslanmaydi



Ta'limdagi o'zgarishlar va natijalar

Maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda sifat va qamrovni oshirishga qaratilgan islohotlar davom etmoqda.


78%

bog'cha yoshidagi
bolalar qamrovi


1,5 mln

maktablarda yaratilgan
qo'shimcha o'quvchi o'ri


1,6 mln

oliygohlardagi
talabalar soni



Talabalarning
yarmidan ko'pini
xotin-qizlar tashkil
etmoqda



Maktablar zamonaviylashtirilmoqda

Yangi maktab binolari va qo'shimcha o'quvchi o'rinlari orqali ta'lim sifatiga qulay sharoit yaratildi.



Oliy ta'lim qamrovi keskin oshdi

Talabalar soni 1 million 600 mingga yetkazilib, yoshlarning oliy ma'lumot olish imkoniyati kengaydi.

Ta'lim sohasidagi bugungi natijalar — kelgusi o'n yillikda e'lon qilingan
“Bilim va malaka” milliy dasturi uchun mustahkam poydevor bo'ladi.




Ta'lim: bog'chadan universitetgacha

Qamrov, xususiy sektor va oliy ta'lim tarmog'ining kengayishi.


Maktabgacha ta'lim qamrovi

foiz



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari


ta



2024 — oilaviy va DXSh bog'chalari bilan


Xususiy bog'chalar

dona




Xususiy maktablar

dona




Umumta'lim muassasalari

ta



Oliy ta'lim muassasalari

ta



1991/92: 52 ta; talabalar: 337 ming (1991/92) → 1 535 ming (2025/26)

BUGUNGI KUN

Bog'cha qamrovi **78 foizga** yetdi — aholi 8 millionga ko'paygan sharoitda; maktablarda **1,5 million** qo'shimcha o'rin; talabalar **1 million 600 ming**, yarmidan ko'pi — xotin-qizlar.

«Bugungi kun» — 28.08.2026 dagi nutqda qayd etilgan holat

MAQSAD — 1-MILLIY DASTUR

- ✓ 6 yoshlilar tayyorlov guruhlariga qamrov **100%**; barcha maktablar xalqaro baholash dasturlarida; texnikumlar qamrovi **1 mln**; **kamida 10** universitet TOP-1000 da

Ilm-fan, sun'iy intellekt va "Samarqand-2028"

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt yo'nalishlarini rivojlantirish — mamlakat kelajagining muhim ustuvorligiga aylandi.



"Samarqand-2028" sun'iy yo'ldoshi

Xitoylik hamkorlar bilan "Samarqand-2028" sun'iy yo'ldoshi fazoga uchirildi.



10 million yosh raqamli industriya va kelajak kasblariga jalb qilinadi

IT, sun'iy intellekt va kreativ iqtisodiyot yo'nalishlarida yoshlarni jalb qilish.



O'zbek tili — ilm-texnologiya tili

Prezident o'zbek tilining raqamli dunyoda ilm va texnologiya yaratish tiliga aylanishi zarurligini ta'kidladi.



Mintaqada yetakchi texnologik markaz

Maqsad — O'zbekistonni texnologik tashabbuslarni dunyoga taklif qiladigan markazga aylantirish.




Raqamli infratuzilma va elektron hukumat

Internet tezligi, elektron xizmatlar va ochiq ma'lumotlar sohasidagi o'sish.


Xalqaro internetga ulanish tezligi

Gbit/s




my.gov.uz portalidagi xizmatlar

birlik




Davlat xizmatlari markazlari xizmat turlari

ta



ODIN ochiq ma'lumotlar reytingidagi o'rin

o'rin



Past o'rin — yuqori natija: 167-o'rindan 11-o'ringa ko'tarilish

Sog'liqni saqlashdagi natijalar

So'nggi o'n yilliklarda sog'liqni saqlash tizimidagi tub islohotlar aholi salomatligi va umr davomiyligida sezilarli o'zgarish berdi.



66,4 → 75,4 yosh

o'rtacha umr ko'rish davomiyligi
(1991–2025)



4 barobar

ona va bola o'limi kamaydi



652 ta

yangi tibbiyot muassasasi
barpo etildi



Tibbiy xizmatlar hajmi 3 barobar oshdi


Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati
va hajmi sezilarli darajada kengaydi.



100 dan ortiq murakkab diagnostika usuli va davolash usuli

Ilgari xorijda amalga oshiriladigan murakkab tashxis
usullari endi mamlakatimizda joriy etilgan.

Kelgusi 5 yilda sog'liqni saqlashga davlat xarajatlari YalMga nisbatan 5 foizga yetkaziladi — bu "Sog'lom avlod" milliy dasturining asosiy vazifasi.




Salomatlik infratuzilmasi va davlat xarajatlari

Tibbiyot infratuzilmasi, davlat xarajatlari va xususiy tibbiyot sektorining kengayishi.

Sog'liqni saqlashga davlat xarajatlari


mlrd so'm



Baza yili — 2018


Tez tibbiy yordam shoxobchalari

ta



Xususiy shifoxonalar

ta



BUGUNGI KUN

Sohaga mablag' **8 karradan ziyod** oshirildi; **652 ta** yangi tibbiyot muassasasi; xizmatlar hajmi **3 karra o'sdi**; **100 dan ziyod** murakkab usul endi yurtimizda; **650 mingdan ziyod** oila yangi uy-joyli bo'ldi.

«Bugungi kun» — 28.08.2026 dagi nutqda qayd etilgan holat

MAQSAD — 2-MILLIY DASTUR

- ✓ Salomatlik xarajatlari besh yilda YalMga nisbatan **5%**; tibbiy sug'urta barcha xonadonlarga; **kamida 5** nufuzli jahon klinikasi



Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning yutuqlari

Yoshlarga ishonch va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash siyosati aniq natijalar bermoqda.



35 %

biznes vakillari — yosh tadbirkorlar



20–25 trln so'm

yoshlarni qo'llab-quvvatlashga har yili ajratilmoqda



Tokio va Parij Olimpiya hamda Paralimpiya o'yinlaridagi tarixiy yutuqlar

O'zbekistonlik sportchilar so'nggi Olimpiya hamda Paralimpiya o'yinlarida tarixiy natijalarni qo'lga kiritdi.



Yosh tadbirkorlik rivojlanmoqda

Davlat qo'llab-quvvatlovi tufayli yoshlar o'z biznesini boshlash uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lmoqda.



Yoshlarga ajratilayotgan har bir imkoniyat — ta'lim dasturi yoki sport — aslida butun jamiyat kelajagiga qilinayotgan investitsiya.



Kelgusi o'n yillik — milliy yuksalish davri

Prezident kelgusi o'n yillikni mamlakat tarixida yangi, hal qiluvchi bosqich — milliy yuksalish davri deb e'lon qildi.

“

“Kelgusi o'n yillik — biz uchun milliy yuksalish davri bo'ladi.”

Shavkat Mirziyoyev, davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag'ishlangan nutqidan

🎯 Aniq maqsad va muddatlar

Yangi davr uchun yettita milliy dastur — har biri aniq raqam va muddat bilan — belgilandi.

🚩 Barcha sohalarni qamrab oladi

Ta'lim va sog'liqdan tortib iqtisodiyot, ekologiya, sud tizimi, mahalla va tashqi siyosatgacha.

👤 Yoshlar — asosiy harakatlantiruvchi kuch

Milliy yuksalish davrining muvaffaqiyati aynan bugungi yoshlarning bilimi va mehnatiga bog'liq.





Bugungi kun — nutq ko'zgusida

28.08.2026 dagi tantanali marosim nutqida qayd etilgan holat.

40–50 mlrd \$

hozirgi paytda yiliga jalb qilinayotgan xorijiy sarmoya (ilgari 2–3 mlrd)

80 pog'ona

«Iqtisodiy erkinlik indeksi»dagi yaxshilanish — «iqtisodiyoti mo'tadil erkin» davlatlar qatorida

35 %

biznes vakillari orasida yosh tadbirkorlar ulushi

20–25 trln so'm

yoshlarni qo'llab-quvvatlashga har yili yo'naltirilayotgan mablag'

qariyb 170

diplomatik munosabat o'rnatgan davlatlar soni

130 dan ortiq

millat va elat vakillari; 16 diniy konfessiya — ahil va inoq

2027–2029

Qo'shilmaslik harakatiga ilk marotaba raislik

«Samarqand–2028»

sun'iy yo'ldoshi fazoga uchirildi

160 mlrd \$

YaIM marrasi — 2026 yilning o'zida ortig'i bilan bajarilishi kutilmoqda (reja)

BUGUNGI KUN

O'zbekiston daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kiradi; kelgusi o'n yillik — **milliy yuksalish davri** deb e'lon qilindi.

MARKAZI

Milliy yuksalishning yettita dasturi — umumiy xarita

Kelgusi o'n yillikda amalga oshiriladigan yettita milliy dastur — O'zbekistonning yangi taraqqiyot xaritasini belgilaydi. Har biri keyingi sahifalarda batafsil yoritilgan.

1



Bilim va malakani taraqqiyotning asosiy kapitaliga aylantirish

2



Xalqning sog'lom bo'lishi va uzoq umr ko'rishini ta'minlash

3



Iqtisodiyotni yuqori texnologiyalar va mehnat unumdorligi modeliga o'tkazish

4



Suv va tabiatga munosabatni tubdan o'zgartirish

5



Sud mustaqilligini kuchaytirish va qonun ustuvorligini umumiy qadriyatga aylantirish

6



Mahallani jamiyat taraqqiyotining asosiy buyurtmachisiga aylantirish

7




O'zbekistonning tinchlik va do'stlik diyori, bag'rikeng o'lka sifatidagi nufuzini yuksaltirish

Keyingi 7 sahifada har bir dastur maqsadi, vazifalari va jamiyat uchun ahamiyati batafsil yoritilgan.

7 TA MILLIY DASTUR

MILLIY YUKSALISH XARITASI





Bilim va malakani taraqqiyotning asosiy kapitaliga aylantirish

Amalga oshirish davri: kelgusio'n yillik — milliy yuksalish davri

BOSH MAQSAD

Bilim va malaka — kelgusi taraqqiyotning eng asosiy kapitaliga aylantiriladi.

NUTQDA BELGILANGAN VAZIFALAR

- ✓ 6 yoshli bolalarni tayyorlov guruhleri bilan 100 foiz qamrab olish
- ✓ Barcha maktablarni xalqaro baholash dasturlariga to'liq jalb etish
- ✓ Texnikumlardagi o'quvchilar qamrovini 1 millionga yetkazish
- ✓ Kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini dunyoning TOP-1000 reytingiga kiritish

Maktabgacha ta'lim

Xalqaro baholash

Texnikum ta'limi

Oliy ta'lim reytingi



2

Xalqning sog'lom bo'lishi va uzoq umr ko'rishini ta'minlash

Amalga oshirish davri: kelgusio'n yillik — milliy yuksalish davri

BOSH MAQSAD

Sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirib, aholi salomatligi va umr davomiyligini oshirish.

NUTQDA BELGILANGAN VAZIFALAR



Sog'liqni saqlashga davlat xarajatlarini kelgusi 5 yilda YaIMga nisbatan 5 foizga yetkazish



5 ta nufuzli xorijiy klinikani mamlakatga jalb qilish

Davlat xarajatlari

Davlat tibbiy sug'urtasi

Xalqaro klinikalar

Zamonaviy tibbiyot

Farmatsevtika va
Biotexnologiya


Ikkinchi milliy dastur: sog'lom hayot va uzoq umr

1. Kelgusi 5 yilda —
YaIMning 5%

2. Profilaktika —
salomatlikni asrash modeli

3. Davlat tibbiy sug'urtasi —
barcha xonadonlarga

4. Kamida 5 ta nufuzli klinika





Iqtisodiyotni yuqori texnologiyalar va mehnat unumdorligi modeliga o'tkazish

Amalga oshirish davri: kelgusi o'n yillik — milliy yuksalish davri

BOSH MAQSAD

Iqtisodiyotni xomashyoga emas, yuqori texnologiya va yuqori unumdorlikka asoslangan modelga o'tkazish.



Xorijiy investitsiyalar oqimi yiliga 40–50 milliard dollarga yetdi. 2030–yilda yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan, bu vazifa shu yilning o'zida ortig'i bilan amalga oshiriladi

NUTQDA BELGILANGAN VAZIFALAR



Kelgusi o'n yilda 450 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilish



2030–yilgacha YaIM hajmini 300 milliard dollarga yetkazish



Sanoatda 2 million yuqori daromadli ish o'rni yaratish



Jon boshiga YaIM hajmini 10 ming dollar marrasidan oshirish

Xorijiy investitsiya

Yuqori texnologiya

Ish o'rinlari

YaIM o'sishi

450 milliard dollarlik investitsiya rejasi — yangi zamonaviy ish o'rinlarining asosiy manbai bo'ladi.

Uchinchi milliy dastur: yuqori texnologiya va mehnat unumdorligi



4

Suv va tabiatga munosabatni tubdan o'zgartirish

📅 Amalga oshirish davri: kelgusio'n yillik — milliy yuksalish davri

BOSH MAQSAD

Suv resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik muhitni yaxshilash.



Tabiatga munosabat – xalqning madaniyati, davlatning mas'uliyati va taraqqiyotning sifat ko'rsatkichidir.

NUTQDA BELGILANGAN VAZIFALAR



Ekin maydonlarida suv tejovchi texnologiyalar qamrovini 100 foizga yetkazish



Tuman va shahar markazlarida yashillik ko'lamini 30 foizga yetkazish



Suv tejash texnologiyalari

Yashil hududlar

Ekologik barqarorlik

Tabiiy resurslar

To'rtinchi milliy dastur: suv va tabiatga yangicha munosabat

1

5 yilda suv tejovchi texnologiyalar — 100%

100%

2

“Yashil makon” — yangi sifat bosqichida

3

Yashil hududlar — jamiyatning daxlsiz boyligi

4

Tuman va shahar markazlarida yashillik — 30%

30%



Sud mustaqilligini kuchaytirish va qonun ustuvorligini umumiy qadriyatga aylantirish

Amalga oshirish davri: kelgusio'n yillik — milliy yuksalish davri

BOSH MAQSAD

Qonun ustuvorligi va adolatni jamiyatning umumiy qadriyatiga aylantirish.



Ishonchli iqtisodiyot va xotirjam jamiyat faqat adolatli sud va qonun ustuvorligi mavjud bo'lgandagina barqaror bo'ladi.



NUTQDA BELGILANGAN VAZIFALAR



Huquqiy tarbiyani maktab ta'limidan boshlash



Fuqarolar va tadbirkorlarning qonuniy kafolatlarini kuchaytirish.



Kiberjinoyatchilik, giyohvandlik va odam savdosiga qarshi kurashni kuchaytirish



"Yashirin iqtisodiyot" va uyushgan jinoyatchilikka qarshi qat'iy kurash



Ayollar va bolalar huquqini kamsitishga qarshi kurashni yangi bosqichga ko'tarish

Huquqiy tarbiya

Sud mustaqilligi

Jinoyatchilikka qarshi kurash

Fuqarolar huquqi

Qonun oldida hammaning tengligi — ishonchli va adolatli jamiyat poydevoridir.



6

Mahallani jamiyat taraqqiyotining asosiy buyurtmachisiga aylantirish

Amalga oshirish davri: kelgusio'n yillik — milliy yuksalish davri

BOSH MAQSAD

Mahalla fuqarolarining fikri va ehtiyojini davlat siyosatining markaziga qo'yish.

NUTQDA BELGILANGAN VAZIFALAR

- ✓ Tuman budjeti mahalla buyurtmasi asosida shakllantiriladi
- ✓ Investitsiya dasturlari fuqarolarning talab-ehtiyojidan kelib chiqib belgilanadi
- ✓ Infratuzilma loyihalari mahalla ehtiyojlarini hisobga olgan holda tuziladi
- ✓ Mahalla farovonligi — asosiy baholash mezonini sifatida belgilanadi


Mahalla budjeti

Fuqarolik ishtiroki

Infratuzilma

Ijtimoiy adolat

Mahalla — endi qaror qabul qiluvchi, faol fuqarolik maskaniga aylanmoqda.



7

O'zbekistonning tinchlik va do'stlik diyor, bag'rikeng o'lka sifatidagi nufuzini yuksaltirish

 Amalga oshirish davri: kelgusio'n yillik — milliy yuksalish davri

BOSH MAQSAD

Mamlakatning tinchliksevar, ishonchli va bag'rikeng davlat sifatidagi xalqaro mavqeini yanada mustahkamlash.



170 ta davlat bilan diplomatik munosabat o'rnatilganligi va 130 dan ortiq millat va elat vakillarining ahil va inoq yashashi – O'zbekistonning tinchlik va hamkorlikka asoslangan siyosati samarasi.

NUTQDA BELGILANGAN VAZIFALAR



O'zbekistonni xalqaro diplomatiyaning muhim markaziga aylantirish



Ko'pqirrali, vazmin va muvozanatli tashqi siyosatni davom ettirish



Iqtisodiy diplomatiyani rivojlantirish



Afg'oniston bo'yicha konstruktiv siyosatni qat'iy davom ettirish



2027–2029–yillarda Qo'shilmaslik harakatiga ilk marotaba raislik qilish va muhim tashabbuslarni ilgari surish

Diplomatik aloqalar

Mintaqaviy hamkorlik

Bag'rikenglik

Xalqaro nufuz



"Bizning ochiq, pragmatik va tinchlikparvar siyosatimiz uzoq muddatli taraqqiyotimizni ta'minlashga qaratilgan."

Tinchlik, bag'rikenglik va tashqi siyosat

O'zbekiston mustaqillik yillarida ochiq, tinchliksevar va ishonchli tashqi siyosat yuritib, xalqaro maydonda o'z o'rnini mustahkamladi.



170 davlat

bilan diplomatik aloqalar o'rnatildi



130+ millat va elat

O'zbekistonda tinch-totuv yashamoqda



16 diniy konfessiya

a'zolari ahil va inoq faoliyat yuritmoqda



Katta siyosiy iroda natijasida O'zbekiston dunyoga keng ochildi



Diplomatik munosabat o'rnatilgan davlatlar soni qariyb 170 taga yetdi



Markaziy Osiyoda ahil qo'shnihilik, strategik sheriklik va do'stlik aloqalari kengaytirildi



MDH, Yevropa Ittifoqi, Amerika, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va arab-musulmon dunyosi davlatlari bilan munosabatlar yanada mustahkamlandi.



Sharqiy Yevropa, Afrika va Lotin Amerikasida yangi hamkorlik yo'nalishlari ochildi

"Bugungi notinch zamonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik xalqimizning oltin fondi, bebaho boyligidir."



Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz besh yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan ayrim iqtiboslar

Mustaqillikning buyuk ahamiyati, avvalo, inson qadri va erkin hayotida namoyon bo'ladi.

Eng asosiysi, fuqarolarimiz yuragidagi qo'rquv va hadik o'rnini ishonch va xotirjamlik egalladi.

Katta siyosiy iroda ko'rsatib, O'zbekistonni dunyoga keng ochdik.

E'tiborli jihati – biz bunday yuksak natijalarga xalqimizning fidokorona mehnati, intellektual salohiyati hamda millat va davlat birdamligi tufayli erishyapmiz.

Dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egallashimiz uchun bizga bilimli, kelajak kasblarini puxta egallagan, mustaqil fikriga ega bo'lgan yangi avlod mutaxassislari kerak.

Ayniqsa, talabalarining yarmidan ko'pini xotin-qizlar tashkil etayotgani – Uchinchi Renessansning o'ziga xos qiyofasi, desak, to'g'ri bo'ladi. Chunki, ***bilimli qizlar – bilimli oila, bilimli avlod va ma'rifatli jamiyat deganidir.***

Mening niyatim: O'zbekiston texnologiya sohalarida jahonga ilg'or tashabbuslarni taklif qiladigan markazga aylanishi zarur.

O'zbek tili – raqamli dunyoda ilm va texnologiya yaratiladigan til bo'lishi lozim.

Jonajon Vatanimiz azaldan ulug' mutafakkirlar, aziz avliyolar, buyuk allomalar yurti bo'lib kelgan.

Bizning eng katta boyligimiz – ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo'lgan Yangi O'zbekiston yoshlaridir.

Xalqaro fan olimpiadalarida, tanlov va festivallarda yuqori o'rinlarni egallayotgan yoshlarimizni – Yangi O'zbekiston yulduzlari, kelajak bunyodkorlari, deb bilaman!

Bugun biz tarixning yanada mas'uliyatli va hal qiluvchi pallasida turibmiz. Mamlakatimiz taraqqiyotning mutlaqo yangi davriga qadam qo'ymoqda. Kelgusi o'n yillik – biz uchun **milliy yuksalish davri** bo'ladi.

Yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari, 16 ta diniy konfessiya a'zolari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda.

Mamlakatimiz bilan diplomatik munosabat o'rnatgan davlatlar soni qariyb 170 taga yetdi.

***Biz bugun kechagidan kuchlimiz.
Nasib etsa, ertaga bundan ham kuchli bo'lamiz.***

***Biz yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot
va buyuk kelajagimizni birgalikda barpo etamiz!***

***Yashasin O'zbekiston Respublikasi!
Yashasin O'zbekiston xalqi!***



Mustaqillikning



**Vatanimizning oltin davrini,
yangi buyuk tarixini barchamiz
birgalikda yaratamiz!**



Nutqning to'liq matni bilan tanishing
QR-kodni skaner qiling yoki (bosing): president.uz/oz/lists/view/9544



**"TARAQQIYOT STRATEGIYASI"
MARKAZI**